

YANGI O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA YO'NALISHLARI

prof. Ayubjonov Abbas

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-2154-8971

abbasayubjanov@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, ichki turizm, smart turizm, logistika, turizm "monetizatsiyasi", infratuzilma, sayyohlar, turizm maqsadlari, turizmni rivojlantirish.

ЭТАПЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

проф. Аюбжонов Аббос

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В стране поэтапно реализуются комплексные меры по развитию туризма как одной из стратегических отраслей, которая обеспечит диверсификацию национальной экономики, быстрое развитие регионов, создание новых рабочих мест, рост доходов и уровня жизни населения, инвестиционную привлекательность страны.

Ключевые слова: экономика, внутренний туризм, smart туризм, логистика, «монетизация» туризма, инфраструктура, туризма, цели туризма, развитие туризма.

STAGES AND DIRECTIONS OF DOMESTIC TOURISM DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

prof. Ayubjonov Abbas

Tashkent State University of Economics

Abstract. The country is gradually implementing comprehensive measures to develop tourism as one of the strategic sectors that will diversify the national economy, accelerate the development of regions, create new jobs, increase the income and living standards of the population, and increase the country's investment attractiveness.

Keywords: economy, domestic tourism, smart tourism, logistics, tourism "monetization", infrastructure, tourists, tourism goals, development.

Kirish.

O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalar va go'zal tabiati bilan, turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadigan davlatlar qatoriga kiradi. "O'zbekiston – 2030" Strategiyasida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasi qo'yilgan.

Xorijiy turistlar tashrifi bo'yicha O'zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 98 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019 yilda O'zbekistonga 6 mln. 748 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 7 mln. 926 ming nafarga yetdi. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasining tez sur'atlar bilan tiklanayotganini ko'rsatadi. O'zbekistonga xorijiy turistlarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlari, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog'liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlarni o'tkazish kabi amaliy ishlar olib borilmoqda.

XXI asrga kelib turizm dunyoning barcha mamlakatlarida keng taraqqiy etmoqda. Bugungi kunda turizm sanoati dunyoda eng ilg'or va serdaromad sohalaridan biriga aylandi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 200 millionga yaqin kishi ushbu sohada mehnat qiladi, jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmdan tushayotgan daromad 1 trillion AQSh dollaridan ko'proqni tashkil qilmoqsa, dunyo bo'yicha sayyohlar soni yiliga 4-5 foiz ko'payib, har yili boshqa davlatlarga sayohat qiluvchilar soni 1 millondan oshmoqda. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar negizida turizm sohasini yanada rivojlantirish, uni milliy iqtisodiyot taraqqiyotining yuqori darajasiga aylantirish siyosatini olib bormoqda. Sababi, O'zbekistonda ulkan turistik salohiyat mavjud bo'lib, hozirgi kunda undan foydalanish samaradorligi hali juda past. Demak, asrlar davomida avlodajdodlarimizning mashaqqatli mehnati evaziga to'plangan va biz uchun o'tmishdan meros bo'lib qolgan katta boylikdan o'rinni foydalanish, uni mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylantirish asosida mavjud imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish muammosi hal qilinadi.

Turizm o'zida jahon iqtisodiyotining murakkab va majmuaviy sohasini mujassam etganki, bu butun jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Aloxida mamlakatlar xo'jaligiga ham, hududlarga ham u birday tegishlidir. Ayrim mamlakatlarda xalqaro turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo'llab-quvvatlanib turiladi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotni tobora integratsiyalashtirib borayotganligi, xalqaro aloqalarning tizimli takomillashuvi natijasida turizm sohasining barqaror rivojlanib borayotganligini ko'rish mumkin. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va nufuzi ham tobora ortib bormoqda. Chunki turizm eng serdaromad sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bugunda mamlakatimizda turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish hamda turizm faoliyatini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev turizmni rivojlantirish bo'yicha: "Biz hozir faqat turizmni rivojlantirish bilan shug'ullanadigan tuzilmaga doir masalalarni tasdiqladik. Bu choralar turizmaning O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zahiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora tadbirlar bilan kuchaytirilishi zarur" deb ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-232-son qarori hamda 2022 yil 15 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2666-son qarorida ham O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan (Qaror, 2022):

mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishiga yo'naltirilgan

turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta'minlash;

turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borishga, tarixiy-madaniy merosni keng targ'ib qilishga, O'zbekiston Respublikasining turizm qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotlari va brendlari xalqaro turizm bozorlariga kirib borishga yo'naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;

ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va ularning amalga oshirilishi monitoringi, turizm turlarining keng doirasini jadal rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, shuningdek xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish (Qaror, 2022) kabi bir qator aniq vazifalar belgilangan.

Adabiyotlar sharhi.

Kujel (2018) o'zining darsligida turizm sohasini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini ochib bergan. Bunda mamlakatning eng tez rivojlanadigan sohasi sifatida turizmga alohida e'tibor qaratish zarurligini keltirib o'tadi. Rossiyalik olimlar N.Morozova va M.Morozovning fikriga ko'ra zamonaviy turizm industriyasi yangi kompyuter texnologiyalarini joriy etilishi bilan ulkan o'zgarishlarga ega bo'ldi. Har qanday tashkilotni turistik biznes bozorida zamonaviy axborotlar texnologiyasidan foydalanilmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi amaliyotda mumkin emas.

Xaydarovning (2022) fikriga ko'ra, mamlakatda ta'lim sohasiga xorijlik talabalarni qabul qilishni keskin ko'paytirish kerak. Ular kamida 4 yil o'qish davrida turistlar kabi hayot kechiradi. Ularni o'qish davrida ota-onalari va yaqin do'stlari ko'rib ketish uchun kelib-ketish imkoniyati juda katta.

Ko'rib o'tilgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, turizm sohasini rivojlantirish mamlakatning barcha sektorilarining rivojlanishiga bevosita ta'siri yuqori ekanligi asoslab berilgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz turizm salohiyatini rivojlangan davlatlar foydalanayotgan tajribalar asosida mavjud bo'lgan turistik salohiyatdan foydalanish orqali dunyoga namoyon qilish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Jahon tovarlar va xizmatlar eksportida hozirgi paytda turizm ulushiga butun jahon eksportining 8%ga yaqini, jahon xizmatlar savdosining 30%, jahon yalpi mahsulotining 11%, jahon kapital quyilmalarining 9%, jahon iste'mol xarajatlarining 11%, butun dunyo soliq tushumlarining 5% to'g'ri keldi. Bundan tashqari, turizm aholining bandligiga anchagina ta'sir o'tkazmoqda. Mutaxassislar bahosicha, hozirgi zamon turizmi va uning bilan bog'liq sohalarida jahondagi har sakkizinchi xodim band. Turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining uch yetakchi eksport sohalari qatoriga kiradi. U faqatgina neft qazib olish va qayta ishlash hamda avtomobilsozlik sanoatlaridagina keyin turadi.

Turizm jahonning ko'pchilik davlatlarida yagona tizim sifatida rivojlanmoqda va mamlakatlar budjetiga salmoqli daromad keltiradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turizm sohasida birinchi mutaxassislardan biri angliyalik Tomas Kuk bo'lib hisoblanadi. U baptistlar pasteri (ruhoniysi) bo'lib, 1843 yilda birinchi marta 570 kishidan iborat etiqod qiluvchilarni to'plab Angliyaning Lestera va Lafebaro shaharlari o'rtasida turistik guruhni poezda sayohatga olib chiqadi va ommaviy turizmning tashkil etilishiga asos soladi (Mamatqulov va bosh. (2007).

1901 yilda tuzilgan Rossiya tyristlar jamiyati mamlakatda turizmni keng ko'lamda rivojlantirish uchun katta rol o'ynaydi. Turistlar jamiyati a'zolari turli xil ekskursiyalarni ya'ni

yayov, (piyoda), vilosipedda, chang'ida, otda baydarka va paruslarda tashkil qilganlar. Jamiyat a'zosi A.Pankratov vilosipedda birinchi bor yer sharini 15 yilda aylanib chiqadi.

Birinchi jahon urushidan keyin, ya'ni 1920 yillardan boshlab xalqaro turizm yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Urysh davrida ko'pgina turistlar Italiya va Shveysariya mamlakatlariga borgan bo'lsalar, urushdan so'ngi yillarda esa yilning safari butun Yevropa mamlakatlarini qamrab oldilar.

II jahon uryshi tugagandan keyin Yevropaning ayrim davlatlarida, AQSh va Kanadada xalqaro turizm endi rivojlana boshladi. 1951 yilga kelib butun dunyo bo'yicha qayd etilgan turistlarning umumiy soni urushgacha bo'lgan darajaga yetdi va 25 mln. dan ortiq kishini tashkil qildi.

Xalqaro miqyosda ayriboshlash keng ko'lamda rivojlana boshladi. Turizm yakka tartibdan, uyushgan ommaviy holatga aylana boshladi. 1947 yil Parijda xalqaro turistik tashkilotlarning rasmiy Ittifoqi (MSOTO) tasdiqlandi. Uning haqiqiy a'zolari bo'lib davlat va nodavlat tashkilotlari hisoblanadi. Ittifoq tarkibiga 116 davlat kirgan.

1-jadval

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning (erkaklar) davlatlar bo'yicha taqsimlanishi¹

№	Hududlar	2020	2021	2022	2023	2023-yil 2020 yilga nisbatan o'zgarishi	
						(+ ; -)	(%)
1	Ozarbayjon	0,6	0,01	5,6	9,2	8,6	1533,3
2	Afg'oniston	0,2	0,4	0,3	0,4	0,2	200,0
3	Germaniya	1	1,2	4,2	3,3	2,3	330,0
4	Qirg'iziston	511,8	691,7	1303,5	1031,3	519,5	201,5
5	Xitoy	0,7	0,05	0,3	7,7	7	1100,0
6	Isroil	0,2	0,2	0,9	1,2	1	600,0
7	Hindiston	2,4	2,5	5,6	5,1	2,7	212,5
8	Italiya	0,1	0,03	0,4	0,9	0,8	900,0
9	Qozog'iston	277,7	137,2	517,6	404,7	127	145,7
10	Janubiy Koreya	6,8	4,2	13,4	9,8	3	144,1
11	Belarusiya	2,5	4,8	3,5	1,5	-1	60,0
12	Latviya	0,8	1,5	3,1	2	1,2	250,0
13	Malayziya	0,8	0	1,6	3	2,2	375,0
14	BAA	15,7	42,8	67	65,3	49,6	415,9
15	Rossiya	31,6	94,6	140,5	119,9	88,3	379,4
16	Saudiya Arabistoni	12,2	0,03	31,8	53	40,8	434,4
17	Buyuk Britaniya	0,4	0,8	2,8	2,5	2,1	625,0
18	AQSH	1,6	3,3	8,1	6,3	4,7	393,8
19	Tojikiston	165,3	96,5	409,2	569,6	404,3	344,6
20	Tailand	3	0,1	1,6	6	3	200,0
21	Turkmaniston	15,4	1,8	2,4	3,9	-11,5	25,3
22	Turkiya	28,8	77,8	142,9	85,2	56,4	295,8
23	Fransiya	0,2	0	0,9	0,7	0,5	350,0
24	Yaponiya	0,1	0,3	0,2	0,7	0,6	700,0
25	Boshqa mamlakatlar	5,3	25,6	40,2	50,8	45,5	958,5

1-jadval ma'lumotlari asosida ta'kidlash mumkinki, Rossiya — 2020 yildan 2023 yilgacha O'zbekiston fuqarolarining eng ko'p ketgan davlati bo'lib qolmoqda. 2020 yilda 31,6 ming, 2023 yilda esa 119,9 ming erkak chet elga ketgan. 2023 yildagi o'zgarish 88,3 ming kishini tashkil

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. <https://stat.uz>.

qiladi, bu 379,4% o'sish deganidir. Bu, Rossiyaning iqtisodiy holati, ishchi kuchiga talab va O'zbekiston fuqarolarining til va madaniyatga moslashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qozog'iston — 2020 yilga nisbatan 2023 yilda ko'chib ketgan O'zbekiston fuqarolari soni 127 ming kishiga kamaygan. Biroq, 2023 yilda 404,7 ming fuqarosi ko'chib ketgan bo'lsa ham, umumiy o'zgarish 145,7%ni tashkil etadi. Bu Qozog'istonning iqtisodiy o'zgarishlari va ishchi kuchiga bo'lgan talabning barqarorligiga bog'liq.

BAA (Birlashgan Arab Amirliklari) — 2020 yilda 15,7 ming odam ketgan, 2023 yilda esa 65,3 ming odam ketgan. Bu 415,9% o'sishni tashkil qiladi. BAA iqtisodiyoti va o'ziga xos ish imkoniyatlari ko'plab O'zbekiston fuqarolarini jalb qilgan.

Turkiya — O'zbekiston fuqarolarining Turkiyaga migratsiyasi ham sezilarli darajada o'sdi. 2020 yilda 28,8 ming odam ketgan bo'lsa, 2023 yilda 85,2 ming odam ketgan. O'sish 295,8%ni tashkil etdi. Turkiya o'zining iqtisodiy imkoniyatlari, ta'lim va turizm sohasidagi imkoniyatlar bilan O'zbekiston fuqarolarini jalb etmoqda.

Afg'oniston — Afg'onistonga ketgan fuqarolar soni kichik, ammo barqaror. 2020 yildan 2023 yilga qadar o'zgarish faqat 0,2 mingni tashkil etadi (200% o'sish). Bu davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holatning cheklovchi ta'siri mumkin.

Turkmaniston — 2020 yilda 15,4 ming odam ketgan, 2023 yilda esa 3,9 ming odam ketgan. O'zgarish -11,5 mingni tashkil etadi (-25,3%). Turkmanistonga ketgan fuqarolar sonining keskin kamayishi, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Belarusiya — 2020 yil va 2023 yil o'rtasidagi o'zgarishlar kam, 1,5 mingga kamaygan (-60,0%). Belarusga ko'chishning kamayishi, siyosiy holat va mehnat imkoniyatlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ozarbayjon — O'zbekiston fuqarolarining Ozarbayjonga migratsiyasi 2020 yildan 2023 yilga qadar 1533,3%ga o'sdi. Bu juda katta o'sish. Bu, ehtimol, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va ishchi kuchiga bo'lgan talabning kuchayishiga bog'liq.

Janubiy Koreya — Koreyaga ketgan fuqarolar soni ham katta o'sishga erishdi. 2020 yilda 6,8 ming odam ketgan, 2023 yilda esa 9,8 ming odam ketgan. O'sish 144,1%ni tashkil etdi. Koreyada ishchi kuchiga bo'lgan talab va ish imkoniyatlari bu o'sishni izohlaydi.

Hindiston — Hindistonga migratsiya ham o'sdi, ammo boshqa davlatlar bilan solishtirganda unchalik katta emas (212,5% o'sish). Hindistonning o'ziga xos iqtisodiy holati va imkoniyatlaridan foydalanayotgan o'zbekistonliklar ko'plab sohalarda ishlamoqdalar.


Yaponiya — Yaponiya O'zbekiston fuqarolari uchun istiqbolli bozor hisoblanadi. 2020 yilda 0,1 ming odam ketgan, 2023 yilda esa 0,7 ming odam ketgan. O'sish 700%ni tashkil etadi. Yaponiyaning texnologik sohalari va malakali ishchi kuchiga talab bunday o'sishning sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

Ishchi kuchining taqsimlanishi: Ko'plab o'zbekistonlik erkaklar o'zlarining malakalarini qaysi davlatlarda ishlatishayotganini tahlil qilish zarur. Masalan, Rossiya, Qozog'iston, BAA, va Turkiya kabi davlatlar ko'plab ishchilarni jalb qilmoqda, chunki bu mamlakatlarda qurilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda ishchi kuchiga talab yuqori.

Pul o'tkazmalari (remittanslar): Bu migratsiya jarayoni, ayniqsa, Rossiya, Qozog'iston, BAA va Turkiya kabi davlatlarda yashovchi O'zbekiston fuqarolaridan o'tkaziladigan pul o'tkazmalari iqtisodiy jihatdan juda muhimdir. Remittanslar O'zbekiston iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi va aholining turmush sharoitini yaxshilashga yordam beradi.

Siyosiy va iqtisodiy omillar: Bunday migratsiyaning o'sishi mamlakatlararo siyosiy va iqtisodiy holatlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston fuqarolarining migratsiyasi, ko'pincha, o'zaro iqtisodiy hamkorlik, ishchi kuchiga talab va siyosiy barqarorlikka asoslanadi. O'zbekiston fuqarolarining chet elga migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotiga va xalqaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'sib borishi bilan birga, migratsiya davomida yuzaga keladigan muammolarni (ishchi kuchi

malakasi, ijtimoiy ta'sirlar) hisobga olish va migratsiya siyosatini yanada samarali boshqarish zarur.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi turistik maqsadlarda xorijga safar qilgan fuqorolar soni²

1-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2018-2019 yillar o'rtasida O'zbekiston fuqarolarining xorijga turistik safarlari sezilarli darajada o'sdi: 31,981 mingdan 35,984 mingga (o'sish 4,003 ming, ya'ni 12,5%). Bu o'sish, ehtimol, O'zbekistonning turizm sohasiga bo'lgan qiziqishning ortganini va xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgan choralarning samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlarga sayohat qilishning oddiy fuqarolar uchun yanada arzonlashganini va qulaylashganini ham inobatga olish kerak.

2020 yilda turistlar soni keskin pasaygan (35,984 mingdan 6,399 mingga). Bu 82,2% pasayishni tashkil qiladi. Bu yildagi pasayishning asosiy sababi COVID-19 pandemiyasining ta'siri bo'ldi. Dunyo bo'ylab sayohatlar to'xtadi, chet elga chiqish va kirish cheklovlari kuchaytirildi. Shuningdek, turizm sohasining to'liq to'xtab qolishi va aviatsiya cheklovlari ham katta rol o'ynadi.

2021 yildan boshlab turistlar soni tiklanishi boshlandi. 2020 yilning pasayishidan so'ng, 2021 yilda safar qilgan fuqarolar soni 16,179 mingga yetdi, bu 2020 yilga nisbatan 151,6% o'sishni tashkil etdi. 2021 yilga kelib, pandemiya ta'siri biroz kamaydi, lekin hali ham chet elga sayohat qilishda cheklovlar mavjud edi. 2022 yilda turistlar soni yana ortdi va 19,752 mingga yetdi (2021 yilga nisbatan 22,3% o'sish). Bu davrda turizm sohasida tiklanish davom etganini va odamlar sayohat qilishga yana qiziqish bildirishayotganini ko'rsatadi. 2023 yilda turistlar soni 156,636 mingga yetgan, bu juda katta o'sish. 2022 yilga nisbatan o'sish 698,9% ni tashkil etdi.


Bu yilgi o'sishning asosiy sabablaridan biri, ehtimol, pandemiyaning yakunlanishi va xalqaro sayohatlar uchun to'liq erkinlikning qayta tiklanishi bo'ldi. Chet elga chiqish cheklovlarining bekor qilinishi, aviatsiya reyslarining tiklanishi va yangi turistik imkoniyatlarning paydo bo'lishi O'zbekiston fuqarolarini yanada ko'proq xorijga sayohat qilishga undadi.

Sayohatlar tiklanishi: 2020 yilda pandemiya ta'sirida turizm deyarli to'xtaganidan keyin, 2021 yilda va undan keyingi yillarda sayohat qilish sezilarli darajada tiklandi. 2023 yilda esa turistlar soni rekord darajaga yetdi, bu turizm sohasining yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi. Turizm sohasining rivojlanishi: 2023 yilgi katta o'sish, O'zbekistonning turizm infratuzilmasini

² O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. <https://stat.uz>.

yaxshilash, xalqaro sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va ularning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan choralar samarasidir. Bundan tashqari, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan turistik aloqalarini mustahkamlash uchun amalga oshirilgan ishlar ham ijobiy natijalar berdi. Xalqaro turizmni rivojlantirish: 2023 yilda turistik maqsadlarda safar qilgan fuqarolar sonining keskin o'sishi, O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi o'rni yanada kuchayganini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, mamlakatning turizm salohiyatining rivojlanayotganini anglatadi.

O'zbekiston fuqarolarining xorijga turistik safarlari pandemiya ta'sirida keskin pasayganidan keyin, 2023 yilga kelib, yuqori o'sishni ko'rsatdi. Bunda, davlatning turizm sohasidagi siyosatlari, xalqaro turizmga qaytish, va xalqaro aviatsiya bilan bog'liq cheklovlarining bekor qilinishi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda turizm sanoatining tiklanishi va rivojlanishi O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



2-rasm. 2022-yilda faoliyat olib borayotgan turistik firma va tashkilotlar soni, dona

2-rasm ma'lumotlari asosida ta'kidlash mumkinki, 2023 yilda 593 ta turistik firma va tashkilotlar faoliyat olib bomoqda va Respublikamiz bo'yicha eng ko'p turistik firmalarga ega hudud 181 ta tashkilot bilan Toshkent shahri yetakchi bo'lib, oxirgi o'rinlarda Namangan va Sirdaryo viloyati egallamoqda.

Xulosa va takliflar.

Turizmning global rivojlanishi dunyo mamlakatlarini yaqinlashtirib, ularning o'zaro munosabatlarini faollashtirishda eng ishonchli va eng mustahkam tizimdir. Turizm rivojlanishi hamma sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat iqtisodiyotining yuqori tarzda o'sishiga olib keladi. Shuningdek, sohaga kiritilayotgan sarmoya qisqa fursatda o'zini oqlashi, turistik kompaniyalar imkoniyatlari kengayishi hamda yuqori foyda olish mumkinligi sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini ortishiga xizmat qilmoqda. Shu sababli, jahon bozorida rivojlanib kelayotgan ko'pgina mamlakatlar va tadbirkorlar turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor bermoqdalar. Turizmda hozirgi kunda eng katta e'tibor ziyorat turizmiga bo'lmoqda. Saudiya Arabistoni, Tyrkiya, Misp, Malayziya kabi musulmon mamlakatlarida halol turizmni ommalashtirish uchun keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya, Ispaniya va boshqa aholisining kup qismi musulmon bo'lgan qator davlatlarida ham halol turizm standartlariga mos turlar jadal rivojlanib bormoqda.

UNWTO³ning yangi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'ylab 900 milliondan ortiq sayyoh sayohat qilgan, bu 2021 yildagidan ikki baravar ko'p, lekin hali ham pandemiya oldingi darajaning 63 foizini tashkil qiladi. Har bir global mintaqa xalqaro sayyohlar sonining sezilarli o'sishini qayd etdi. Yaqin Sharqda eng kuchli nisbiy o'sish kuzatildi, chunki hozirda pandemiya oldingi davrga qaraganda, kelganlarning soni 83 foiziga oshdi. Yevropa 2022-yilda 585 million kelganni kutib olgani sababli, pandemiya oldingi darajaning deyarli 80 foiziga yetdi. Afrika va Amerika pandemiya oldingi tashrif buyuruvchilarning taxminan 65

³ UNWTO- jahon turistik tashkiloti

foizini tikladi, Osiyo va Tinch okeani esa kuchliroq pandemiya tufayli atigi 23 foizga yetdi. Bunga sabab, pandemiya davridagi cheklovlar bo'lib oxirgi oylarda cheklovlarni yengillashtirilmoqda.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Current Issues Of Tourism Development In Uzbekistan
<https://core.ac.uk/download/336866720.pdf> (Morozova N., Morozov M., Informatsionnoe obespechenie turizma. Uchebnik. Moskva, KnoRus, 2016, 7 c).

Kujelya Yu.L. (2018) *Current Issues Of Tourism Development In Uzbekistan*
<https://core.ac.uk/download/336866720.pdf> (Kujelya Yu. L. Turizm i gostepriimstvo. Uchebnik:- M. : Izdatelstvo Yurayt, - 439 s.).

Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B. va bosh. (2007) <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/10/12-y-Xalqaro-turizm.-Darslik-X.M.Mamatqulov-A.B.Bektemirov-va-bosh.-S-2007-.pd>.

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2666-son qarori. <https://lex.uz/>.

UNWTO- jahon turistik tashkiloti.

Xaydarov N. (2022) Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. Ochiq iqtisodiyot: sog'lom raqobat, biznes muhiti investitsion muhit jozibadorligi / Xalqaro amaliy anjuman / TDIU.